

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RAYEVA GULHAYO XAKIM QIZI

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Jo‘rayeva Gulhayo Hakim qizi

Tog‘ay Murod qissalarida lingvomadaniy xususiyatlar..... 3

Жураева Гулхаё Хаким кизи

Лингвокультурные особенности в повестях Тогая Мурада..... 23

Juraeva Gulhayo Khakim kizi

Linguocultural features in the stories of Togay Murad..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RAYEVA GULHAYO XAKIM QIZI

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2822 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Murodova Nigora Quliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdiyev Murodqosim Bolbekovich
filologiya fanlari doktori, professor

Tojiyeva Gulbahor Nomozovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

J.D. Eltazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Sh.S. Mahmadiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

X.Z. Xayrullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asr oxirida antropotsentrik paradigmaning vujudga kelishi til egasi, ya'ni so'zlovchi omilini aniqlash bilan bog'liq bo'lib, tilda asosiy e'tiborni shaxsga qaratmoqda. Shu bois tillar va madaniyatlar kesishmasida olamning lisoniy manzarasini ifodalovchi milliy kodlar, mentalitetga xos tafakkur va uni aks ettiruvchi stereotiplarning matn tarkibi bilan bog'liq milliy qiyofasini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Natijada lingvomadaniy birliklarning millat o'zligini anglashida, qadriyatlarining ustuvor bo'lishida, tilning e'zozlanishi hamda boyishidagi ahamiyatini yoritish, tilni o'z egasi bo'lmish xalq milliy madaniyati bilan uzviy holda tasvirlash so'nggi yillarda antropotsentrik tilshunoslikning, xususan, lingvokulturologiyaning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

Dunyo tilshunosligida til va madaniyat mushtarakligi asosida shakllangan lingvokulturologiya xalq madaniyati va milliy tafakkurini namoyon etuvchi fan sifatida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Natijada lingvokulturologiyaning muayyan xalq ma'lum bir taraqqiyot davridagi madaniy munosabatlarini ifodalovchi zamonaviy, rivojlanish davriga oid bo'lgan lingvomadaniy o'zgarishlarini ko'rsatuvchi tarixiy, o'zaro aloqada bo'lgan turli millat va elatlar hamda bir tillardagi madaniy holatlarni bir-biriga qiyosiy o'rganadigan chog'ishtirma, hududiy lug'atlar tuzish ishlarini amalga oshiradigan lingvomadaniy leksikografiya kabi tarmoqlari yuzaga keldi. Shu jihatdan ijodkor asarlarida uchrovchi va yozuvchi individualligini namoyon etuvchi obrazli nutqni va ma'lum hudud aholisiga xos madaniyatni o'rganuvchi lingvomadaniy birliklarni ochib berish bugungi kunda tilshunoshlik oldida zarurat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida madaniyatning tilda, tilning madaniyatda aks etishi masalalari o'zbek tilshunosligida ham jadal o'rganila boshlandi. "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va istiqboldagi vazifalar belgilab berildi"¹. Shu sababli bugunga kelib tilimizning milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon qiluvchi til birliklari, ya'ni lingvomadaniy birliklarni o'rganish kun tartibiga qo'yildi. Yozuvchi Tog'ay Murod qissalari o'zbek milliy ma'naviyati va madaniyatini yaqqol namoyon qila oluvchi lingvomadaniy birliklarga boyligi va ularning hanuzgacha alohida rakursda tahlilga tortilmaganligi tadqiqot mavzusining keng ko'lamda o'rganilishi lozimligini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 21-oktabr, №221-222.

taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda VMQ-984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda bu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida til va madaniyat munosabatlari masalasi dastlab antik davr faylasufi Arastu, keyinchalik Vilgelm fon Humboldt, B.Uorf, E.Sepir, L.Vaysgerber asarlarida, yaqin davrda esa N.D.Arityunova, A.E.Vejbitskaya, V.V.Vorobyov, E.V.Babayeva, L.E.Vilms, N.V.Barishev, V.N.Teliya, V.A.Maslova, V.M.Shaklein, S.V.Ivanova, Z.Z.Chenishova, N.F.Alefirenko, Z.K.Sabitova, I.A.Murzinova kabi olimlarning tadqiqot ishlarida yoritildi². Madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog‘liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.N.Teliya, V.A.Maslova, V.M.Shaklelnarning ishlarini qayd etish lozim.

O‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalishda bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, madaniyatning tilda, tilning madaniyatda aks etishi, lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi kabi masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida N.Mahmudov, A.Nurmonov, N.Sayidrahimova, D.Xudoyberganova,

² Аристотель и античные риторика. – М: Наука, 1978. – 234 с.; Вильгельм фон Гумбольдт. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 452 с.; Сепир Э. Избранные труды о языкознанию и культурологии. – М: Издательская группа «Прогресс», «Универс», 1993. – 655 с.; Арутюнова Н.Д. Метафора дискурс / Теория метафоры. – М: Прогресс, 1990. – 512 с.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.; Воробьев В.В. Теоритические и прикладные аспекты лингвокультурологии. Дисс. ...д-ра филол. наук. – М., 1996. – 395 с.; Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков). Дисс. ...канд. филол. наук. - Волгоград, 1997. – 207 с.; Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия «любовь» (на материале немецкого и русского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 212 с.; Барышев Н.В. Национальная специфика лексико-семантических полей «Средства передвижения» в русском и английском языках. Дисс. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 1999. – 161 с.; Телия В.Н. Русская фразеология: сематический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа, 1996. – 288 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебник. – М., 2001. – 208 с.; Шаклеин В.М. Лингвокультурная ситуация в современной России. – М.: Флинта, 2010. – 152 с.; Иванова С.В., Ченьшева З.З. Лингвокультурология: проблемы, поиски, решения. Монография. – Уфа, 2010. – 366 с.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учебное пособие. 3-е изд. – М.: Наука, 2016. – 288 с.; Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта, 2013. – 524 с.; Мурзинова И.А. Эмблематичность образных характеристик лингвокультурного типажа «британская королева» в языковом сознании носителей британской лингвокультуры // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2013. - №10. - С.32-35.

Sh.Usmanova kabilarning tadqiqotlarini belgilash mumkin³. So‘nggi yillarda Sh.Maxmaraimova, Sh.Qalandarov, D.Tosheva, D.Rustamov, D.Rustamova, F.Usmanov kabi tadqiqotchilar lingvokulturologik yo‘nalish rivojiga sezilarli hissa qo‘shishdi⁴.

Lingvomadaniy xususiyatlarni ma‘lum yozuvchi ijodi doirasida o‘rganish tilshunoslikning zamonaviy masalalaridan sanaladi. O‘zining boy adabiy merosi orqali millat mentalitetini munosib yoritgan shunday adiblardan biri Tog‘ay Muroddir. Shu kunga qadar U.To‘laganova, M.Qosimova, Z.Suvanov, N.Qobilov dissertatsiyalarida adib asarlari tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilingan⁵. M.Qosimova va N.Qobilovlar tadqiqotlarining ba‘zi paragraflarida lingvokulturologik masalalarga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsa-da, lingvomadaniy birliklar alohida o‘rganilmagan. Tadqiqotimizda Tog‘ay Murod qissalari monografik tarzda lingvomadaniy tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Tog‘ay Murod qissalaridagi milliy madaniyatni aks ettirishga xizmat qiluvchi ayrim lingvomadaniy birliklarning xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Tog‘ay Murod qissalarida uchrovchi lingvokulturemalarning xususiyatlarini yoritish;

adib qissalaridagi milliy madaniyatni ifodalashga xizmat qiluvchi o‘xshatish hamda metaforalarni lingvomadaniy jihatdan ochib berish;

yo‘zuvchi ijodida o‘xshatish etalonlarining qo‘llanish darajasini aniqlash;

ijodkor qissalaridagi mentalitetga aloqador barqaror birikmalar: frazeologizmlar, maqol, matallarni aniqlash;

tadqiqot obyektidagi lingvomadaniy birliklarning o‘zbek tili va madaniyati uchun ahamiyatini ko‘rsatish.

³ Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент, 1999. – 64 б.; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. - №5. – Б.3-16.; Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.; Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015. – 192 б.; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 248 б.

⁴ Махмараймова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Қарши, 2018. – 168 б.; Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Қўқон, 2019. – 138 б.; Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусияти: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 51 б.; Рустамов Д. Лексемалар миллий-маданий хосланган семасининг лингвомаданий аспекти. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2018. – 128 б.; Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик хусусияти (ўзбек тили материаллари асосида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2018. – 148 б.; Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс. – Тошкент, 2020. – 173 б.

⁵Тўлаганова У. Тоғай Мурод насрида ритм. Фил.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2005. – 130 б.; Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида). Фил.фан.номз...дисс.– Тошкент, 2007. – 135 б.; Суванов З. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 163 б.; Қобилов Н. Тоғай Мурод қиссаларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2021. – 53 б.

Tadqiqot obyekti sifatida Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar”, “Ot kishnagan oqshom”, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Momo Yer qo‘shig‘i” qissalari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini millat madaniyatining tilda ifodalanishi, xalq mentaliteti va ruhiyati bilan bog‘liq tarzda nutqiy muloqotni yaratishdagi o‘ziga xosliklar va milliy til xususiyatlarini aniqlash tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lingvokulturema muayyan mentalga xosligi, lingvomadaniy birlik esa umummilliy ahamiyat kasb etishi jihatidan boshqa-boshqa tushunchalar ekanligi aniqlashtirilib, o‘zida millatga xos milliy kodlar, lakunalar, pretsedent birliklarni aks ettirishi bilan so‘z va konseptdan farq qilishi yoritib berilgan;

Tog‘ay Murod qissalaridagi lingvokulturemalarning milliy qiyofani shakllantirishga xizmat qiluvchi predmet nomlarini ifodalovchi *atlas, jelak, tillaqosh, gajak, shokila, marjon, qasava* kabi turlari milliy yeguliklar, rasm-rusm va uy-ro‘zg‘or buyumlari kabi turlardan salmoqli ekanligi aniqlangan;

Tog‘ay Murod qissalarida inson holati bilan bog‘liq o‘xshatishlar yetakchi ekanligi, bu esa o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar ko‘pincha insonning holatini obrazli tarzda ifodalashga harakat qilishini bildirishi, tarkibidagi jumalarda o‘xshatish qurilmasi mavjud bo‘lgan metaforalar bilan birgalikda matn makrotuzilmasidan ana shunday munosabat anglashiluvchi “*Omad deganlari salomini-da bermaydi*” ko‘rinishidagi shakllar ham uchrashi dalillangan;

ijodkor qissalaridagi tahlilga tortilgan barqaror birikmalarda o‘zbek xonadoniga oid bo‘lgan narsa-buyumlar: *beshek, elak, kosa, ko‘za, qozon, cho‘mich, pichoq, munchoq*; xalq turmush tarzi bilan bevosita aloqador *to‘y, go‘r*; milliy taom nomlari *palov, sho‘rva* kabi so‘zlar faol ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

lingvokulturologiyaning xalq o‘zligini tanishi, milliyliigi va tilini asrashidagi ahamiyati misollar vositasida asoslangan;

Tog‘ay Murodning individual uslubiga xos xususiyatlar til materialining lingvomadaniy tahlili yordamida ochib berilgan;

adib qissalarida qo‘llangan har qanday lingvomadaniy birlik o‘zbek portretini chizishga muayyan darajada xizmat qilgani isbotlangan;

ijodkor qissalaridan to‘plangan materiallarning o‘zbek lingvokulturologiyasi bo‘yicha yaratiladigan tadqiqotlar, lug‘atlarni yanada boyitishdagi ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo‘yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat‘iyligi, tahlilga tortilgan lingvomadaniy birliklarning kelib chiqishi milliy tafakkur tarzi bilan uzviyligi, materiallarni tahlil qilishda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Tog‘ay Murod qissalarini lingvokulturologik tahlilga tortish orqali o‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy xususiyatlarga doir masalalarning muayyan

ijodkor asarlari matni orqali to'ldirilishi, lug'at tarkibining boyitilishiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya uchun to'plangan materiallar, kuzatish natijalaridan yozuvchi individualligini, o'zbek milliyliги namunalarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy asarlar yozishda, "Matn lingvistikasi", "Badiiy matnning lisoniy tahlili", "Lingvokulturologiya", "Areal lingvistika" fanlari bo'yicha o'tiladigan ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlarda yozuvchi ijodiga oid matnlarni tahlil qilish uchun foydalanishda, oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tog'ay Murod qissalarida lingvomadaniy xususiyatlarni ochib berish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

lingvokulturema muayyan mentalga xosligi, lingvomadaniy birlik esa umummillatga xosligi jihatidan boshqa-boshqa tushunchalar ekanligi aniqlashtirilib, o'zida millatga xos milliy kodlar, lakunalar, pretsedent birliklarni aks ettirishi bilan so'z va konseptdan farq qilishi yoritilgan qarashlardan FZ-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusida bajarilgan fundamental loyihada foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2024-yil 15-apreldagi 162-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq adabiyotini rivojlantirishga oid tadqiqotlar ilmiy darajasining oshishiga xizmat qilgan;

Tog'ay Murod qissalaridagi lingvokulturemalarning milliy qiyofani shakllantirishga xizmat qiluvchi predmet nomlarini ifodalovchi *atlas, jelak, tillaqosh, gajak, shokila, marjon, qasava* kabi turlari milliy yeguliklar, rasm-rusum va uy-ro'zg'or buyumlari kabi turlardan salmoqli ekanligi aniqlangan tahlillardan FA-F1-OO5-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zRFA Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 15-apreldagi 134/1-son ma'lumotnomasi). Mazkur tadqiqot natijalarini amaliy qo'llash orqali loyiha doirasida bajarilgan tadqiqotlarning mukammallashuviga erishilgan;

Tog'ay Murod qissalarida inson holati bilan bog'liq o'xshatishlar yetakchi ekanligi, bu esa o'zbek tilida so'zlashuvchilar ko'pincha insonning holatini obrazli tarzda ifodalashga harakat qilishini bildirishi, tarkibidagi jumalarda o'xshatish qurilmasi mavjud bo'lgan metaforalar bilan birgalikda matn makrotuzilmasidan shunday munosabat anglashiluvchi "*Omad deganlari salomini-da bermaydi*" ko'rinishidagi shakllar ham uchrashi dalillanganligiga oid natijalaridan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Assalom, yangi kun", "Jarayon", "Adabiyot va hayot" kabi teleko'rsatuv va eshittirishlarda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-oktabrdagi № 01-02/138-son ma'lumotnomasi). Natijada efir uchun tayyorlangan materiallar, ya'ni lingvomadaniy birliklar o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan ibora, maqol, matal, o'xshatish va metaforalar kelajak avlodga millatimizning boy qadriyatlarini, jozibador

tilini yanada yaxshiroq tanitishga, yoshlar ma'naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qilishi e'tirof etilgan;

ijodkor qissalaridagi tahlilga tortilgan barqaror birikmalarda o'zbek xonadoniga oid bo'lgan narsa-buyumlar: *beshik, elak, kosa, ko'za, qozon, cho'mich, pichoq, munchoq*; xalq turmush tarzi bilan bevosita aloqador *to'y, go'r*; milliy taom nomlari *palov, sho'rva* kabi so'zlar faol ekanligi asoslanganligiga oid natijalaridan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Nazm va navo", "O'zbek adabiyoti" kabi teleko'rsatuv va eshittirishlarda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-oktabrdagi № 01-02/138-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlarda ilmiy-ommaboplik ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyatning o'zaro aloqasi**" deb nomlangan. Bobning "*Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va taraqqiy etishi*" deb nom olgan birinchi bo'limida lingvokulturologik qarashlarning shakllanish tarixi, tadqiqotlarning yuzaga kelishi, sohaning mustaqil fan sifatida taraqqiy etish jarayonlari, asosiy tushunchalari, lingvokulturemaning lingvomadaniy birliklar, so'z, konseptdan farqli tomonlari, ularga xos xususiyatlar yoritilgan va Tog'ay Murod qissalarida uchrovchi ayrim lingvokulturemalar mazmuniy guruhlarga birlashtirilib, lingvomadaniy tahlil qilingan.

Tilning o'ziga xosligi, milliyligi tufayli til egasining ongida ma'lum bir manzara yuzaga keladi va shu orqali dunyoni ko'radi. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda lingvomadaniy birliklar va lingvokulturemalarning o'rni beqiyos. Shu o'rinda bu ikki tushunchani bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi. Bugunga qadar mazkur soha yuzasidan qilingan ko'plab tadqiqotlarda ushbu tushunchalar aynan bir

hodisa sifatida qaralganining guvohi bo'ldik. Masalan, O'.Yusupov fikriga ko'ra, "Lingvokulturema semantikasiga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va h.k.lar kiradi"⁶. Sh.Usmanova shunday yozadi: "Lingvokulturologiyaning predmeti madaniyatda ramziy, obrazli va metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi"⁷.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mifologiyalashtirilgan til birliklari, muqobilsiz leksika va lakunalar, o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, tilning metaforalari hamda obrazlari, nutqiy muomala, nutqiy etiketlar, tilning paremiologik va frazeologik fondi umumiy holda lingvokulturemalar hisoblanib, lingvomadaniyatshunoslikning predmetini tashkil etishi olimlar tomonidan yoritilganini ko'ramiz.

Bizningcha esa, lingvokulturemalar o'zida boshqa tilda so'zlashuvchi xalqlar turmush tarzida mavjud bo'lmagan madaniyat belgilarini aks ettiruvchi narsa, hodisa, voqelik nomini ifodalovchi predmetlar, ya'ni realiyalarni anglatuvchi leksemalardir. Lingvokulturemaning o'zi ham bevosita lingvomadaniy birliklarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Lingvomadaniy birliklar esa ma'lum bir xalq madaniyatining u yoki bu qirrasini namoyon etuvchi nutq va til birligi bo'lgan ifodalardir. Ular so'z, so'z birikmasi, gap ko'rinishidagi barqaror birikmalar, o'xshatishlar, metaforalar, ramzlar, mifologemalardir. Ularda til egasining dunyoqarashi, madaniy-tarixiy an'analari aks etadi.

Shu o'rinda lingvokulturemaning konsept bilan bir narsa emasligini ham e'tiborga olish joiz. Olamning konseptual manzarasi har bir individning olamni o'ziga xos tarzda idrok etish qobiliyati bo'lib, lisoniy manzaraga ko'ra boyroq tushunchadir. Negaki, kishilar yoshi, ijtimoiy mavqeyi, turli bilim sohasi vakili ekanligiga ko'ra olamni turlicha ko'z bilan ko'radi. Olamning konseptual manzarasi umuminsoniy, milliy va shaxsiy bo'lishi mumkin. Nizomiddin Mahmudov fikriga ko'ra, xalqning dunyoni milliy ko'rish tarzi va idrok intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi⁸.

Tog'ay Murod qissalarida millatimizning o'zligini, urf-odat va an'analari, milliy xarakterini namoyon etuvchi lingvokulturemalar anchagina. Ularni quyidagicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq:

1. Urf-odatni ifodalovchi lingvokulturemalar: *sovchi, to'y, fotiha to'y, to'qqiz, toboq, xutba, mahr, chimildiq, it g'irillatar, kampir o'ldi, soch siypatar, qo'l ushlatar, hayitlik, jiynoq, aza, alla, bosmalim.*

2. Milliy yeguliklar: *palov, kulcha, shirguruch, nisholda, holva, sho'rva, sumalak, halim, ko'k patir, ko'k somsa, ko'k oshi, shakarob.*

⁶ Юсупов Ў. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар // Филология масалалари. –Тошкент, 2011. №2. – Б.15.

⁷ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019. – B.28.

⁸ Махмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2022. – № 1. – Б.69.

3. O‘zbek xonadoniga oid uy-ro‘zg‘or buyumlari: *kosov, dasturxon, piyola, kigiz, tandir, poyandoz, urchuq, ko‘za, jilov, loyshuvillak, sibziq, halinchak, oynaxalta, choyxalta, qamchi, tumor, gilam, beshik, elak, supurgi.*

4. Milliy liboslar, matolar va taqinchoqlar (Bu turkumda yozuvchi o‘zbek kuyovi va kelinining milliy qiyofasini yaqqol aks ettiradi): *atlas, shoyi, ro‘mol (ottuyoq ro‘mol, sholro‘mol, balxiro‘mol, qulmiro‘mol, shotutro‘mol, simro‘mol, harir ro‘mollar), kamzul, kovush, tillaqosh, zirak, zebigardon, manglaydo‘z, gajak, baldoq, tumor, nozigardon, shokila, uzuk, jelak, qasava, olqor, beqasam chopon, belqars (belbog‘), do‘ppi (bodomcha, iroqi do‘ppilar, chorgul, baxmaltepa do‘ppilar).*

Tillaqosh, zirak, zebigardon – bular o‘zbek ayollarining milliy taqinchoqlari. Tarixiy manbalarda aytilishicha, bo‘lajak kelinlar unashirilgandan so‘ng manglayqosh, tillaqosh deb nomlanuvchi taqinchoqlar taqib yurishgan va bu holat tarixiy asoslarga ko‘ra magik ishonchlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Chunki xalq tushunchalarida inson manglayi uning butun umrining o‘ziga xos ifodasidir. Peshonaning an‘anaviy dunyoqarashda inson taqdiri bilan bog‘liqligi manglayi keng yoki yorug‘, manglayi oq, manglayi qora, sho‘rpehona kabi tushunchalarda ham sezilib turadi. “Kelinchakning manglayi yorug‘ bo‘lishini hech bo‘lmaganda zargarning tillaqosh bezagidan ham bilib olish mumkin”⁹: *Kelin peshonasida tillaqosh bo‘ldi. Quloqlarida zirak bo‘ldi. Ko‘kraklarida sakkiz kumush nishonli zebigardon bo‘ldi*¹⁰.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Tog‘ay Murod qissalarida lingvokulturemalarning milliy libos va taqinchoq nomini anglatuvchi turi boshqa turkumlarga qaraganda faol. Uy-ro‘zg‘or buyumlari nomini anglatuvchi lingvokulturemalar ham son jihatdan salmoqli.

Birinchi bobning “*Lingvomadaniy birlik – olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi birlik*” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida xalqning madaniy turmush tarzi, o‘ziga xos qadriyatlari, mentalitetini ifodalovchi til birliklari bo‘lgan lingvomadaniy birliklar: ramz, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlarning nazariy masalalari tahlil qilinib, ular Tog‘ay Murod qissalaridagi ayrim misollar asosida ochib berildi.

Yozuvchi qissalarida quyidagi lingvomadaniy birliklar uchraydi:

1. Ramzlar. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ramzga shunday ta‘rif berilgan: “Biror g‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora”¹¹.

Darhaqiqat, atirgul xalqimiz madaniyatida muhabbat, ko‘ngil ramzi; kabutar tinchlik ramzi sifatida e‘tirof etiladi. Bu Tog‘ay Murod asarlarida ham o‘z aksini topgan (...*Atirgul qayliq kuyovga ro‘molcha emas, ko‘ngil yubormish ramzi bo‘ldi. ...Bir so‘zanada atirgul ramzi bo‘ldi, bir so‘zanada qizil olma ramzi bo‘ldi. Tag‘in bir so‘zanada og‘zida qizil gul tishlab parvozanmish kaptar bo‘ldi* (TA, 516)).

⁹ Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.132.

¹⁰ Тоғай Мурод. Танланган асарлар. Романлар, қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.360. (Keyingi o‘rinlarda misollar TA qisqartmasida, bet esa qavsda kiritma qilinadi).

¹¹ Ўзбек тилининг изохли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – Б.346.

Shu bilan birga, ayrim ramziy harakatlar ham borki, millatning o'ziga xos ezgu niyati, kelajakdan umidini ifodalaydi: *Kelin gulxandan uch marta aylandi. Oqlik uchun, hamisha oqko'ngil bo'lib yurishlari uchun kelin-qudalar yuziga un sepildi* (TA, 515); *Shu xonadonga sodiq bo'lish ramzida it yalog'iga ovqat qo'ydi. Porillab yonmish olovga moy tomizdi. Bu baxtli bo'lish ramzi bo'ldi. Nevara-chevarali bo'lib yuray deya, qo'liga go'dak oldi* (TA, 517).

2. Etalonlar “biror narsaning ideal namunasi, o'lchovi yoki turi; o'lchov birliklarini hozirgi kundagi fan va texnika erishgan eng yuqori aniqlik bilan qayd etish, saqlash va tarqatish uchun xizmat qiladi”¹².

O'zbek tilida oyday o'xshatish etaloni juda keng qo'llanadi. Bu o'xshatish etalonini semantik va lingvokulturologik jihatdan chiroyli, go'zal, ravshan ma'nolarida izohlash mumkin. O'xshatish etalonlaridan faol qo'llanuvchilaridan yana biri bu olma etalonidir. O'zbek lingvomadaniyatida yuzni, yanoqni olmaga o'xshatish uning go'zal, yoqimlilikidan darakdir. Tog'ay Murod qissalarida ham yuz, yanoq olmaga o'xshatilgan misollar uchraydi: *Ayollarning oppog'i, Misli olma yanog'i, Gulsun opamga salom*¹³.

3. Stereotiplar (yunoncha stereos - qattiq, typos - iz, tamg'a) - turli millat vakillarining boshqalar ongida barqarorlashgan tafakkur tarzi, obrazi. Tog'ay Murod qissalarida ham o'zbeklarga xos stereotiplar ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek oilasida bola dunyoga kelishi katta quvonchli voqea hisoblanadi. “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi butun voqealar Qoplonbek va Oymomoning farzandsizligi ustiga quriladi. Farzandning o'zbek hayotidagi o'rni, uning bo'lmasligi xalq oldida uyat, boshini ko'tarolmay qolishga, hatto ikki bir-biriga suyangan suyukli juftliklarning ayrilishiga sabab sifatida ko'riladi.

4. Pretsedent birliklar milliylik va universallik semalaridan tashqari allyuziv nom sifatida ham qo'llanadi hamda etalon vazifasida keladi. Pretsedent birliklar allyuziv nom vazifasida qo'llanganda ikki xil holat kuzatilishi mumkin: a) allyuziv nomlarning adabiy faktga ishora qilishi; b) ularning turli ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishi. Tog'ay Murod asarlarida uchrovchi quyidagi pretsedent birliklarga diqqat qiling: *Tarlon ot emas, Jumanbulbul kuylagan “Kuntug'mish”! Fozil Yo'ldosh kuylagan “Alpomish”! “Kuntug'mish”ni go'shtga topshirib bo'ladimi? “Alpomish”ni go'sht qilib bo'ladimi?* (TA, 438) Ushbu parchada “Alpomish” va “Kuntug'mish” allyuziv nomlari xalqimizning boy tarixiy merosi hisoblanmish dostonlarimizga, ya'ni adabiy faktga ishora qilyapti.

5. Lakunalar ma'lum bir tushunchani ifodalash uchun tilning lug'at boyligida shu ma'noni ifodalovchi so'zning bo'lmasligidir. Mutlaq lakunalar tarjima lug'atlarda boshqa tilda ekvivalentiga ega bo'lmagan so'zlar sifatida qayd etiladi. Ularning mazmuni tasviriy tarzda ifodalanadi. Masalan, Tog'ay Murod qissalarida uchrovchi *barchin yuzli* birikmasi shunday turga misol bo'la oladi.

6. Nutqiy etiketlar “ijtimoiy va milliy nutqiy xatti-harakatlarni tartibga soluvchi, rasmiy va norasmiy muloqot jarayonida shaxslarning mavqeyi va shaxsiy

¹² Izoh.uz.

¹³ Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар. Қисса. – Тошкент, 2019. – Б.40. (Keyingi o'rinlarda misollar OYO qisqartmasida, bet esa qavsda kiritma qilinadi).

munosabatlariga muvofiq aloqalar o‘rnatish va saqlab qolishdir”¹⁴. Nutqiy etiketlarga tabu va evfemizmlarni misol qilib olishimiz mumkin. Tog‘ay Murod qissalarida o‘ladi so‘zi o‘rnida “*olamdan o‘tdi*”, “*dunyodan o‘tdi*” birikmalarining qo‘llanishi evfemizmlarning yorqin namunasi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Tog‘ay Murod qissalaridagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bobning “*O‘xshatishlarning milliy tafakkurni aks ettirishdagi o‘rni*” deb nomlangan birinchi bo‘limida Tog‘ay Murod qissalarida uchrovchi obyektning obrazli, ta’sirchan, aniq va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadigan o‘xshatishlar lingvomadaniy tahlil qilingan.

Har bir narsa boshqa bir narsaga qiyoslanib, o‘xshash yoki farqli narsa sifatida baholanadi. D.Xudoyberganova o‘xshatishlarni lingvokulturologik adabiyotlarda metafora, metonimiya, maqol va iboralarda ishtirok etishi, tilning lingvomadaniy boyligi ekanini e’tirof etadi.

O‘xshatish olamni bilish jarayonidagi o‘ta muhim operatsiya bo‘lib, uning amalini biz personifikatsiya va reifikatsiyada ko‘rishimiz mumkin¹⁵. “Personifikatsiya – kishiga xos narsa, belgi, harakat kabilarning jonsiz predmetga ko‘chirilishidan iborat uslubiy qo‘llanish”¹⁶, ya’ni jonlantirishdir. “Reifikatsiya esa mavhum g‘oya va tushunchalarni predmetlashtirishdir”¹⁷. Ma’lumki, inson hayoti his-tuyg‘ulardan iborat. Reifikatsiya hodisasi ta’sirida yuzaga kelgan o‘xshatishlar orqali inson hissiyotlari ravshan tasavvur etilishiga erishish mumkin: *Non sindirildi! Buni eshitgan Bo‘ri polvon yarasiga tig‘ tekkan bemorday seskanib, ingrab yubordi* (TA, 360). Ko‘rinadiki, bu misoldagi reifikatsiya hodisasi ham inson kognitiv faoliyatining natijasi bo‘lib, o‘xshatishga asos esa inson tafakkuridagi o‘xshatish-qiyoslash amaliyoti hisoblanadi.

Tog‘ay Murod qissalarining lingvomadaniy tahlillaridan ma’lum bo‘ladiki, adib ijodida inson go‘zalligi ko‘proq tabiat go‘zalliklariga qiyoslanadi va shu tarzda ayol go‘zalligi ta’rifidagi iboralar yuzaga keladi: suv bilan yutguday (*Ayniqsa, hind kinolaridagi qizlar! Suv bilan yutguday qizlar! Suluv-suluv qizlar!* (TA, 405)), yuzlari kulchaday, ko‘zlari zig‘ir guliday (*Oti Momosuluv emish. Yuzlari kulchadaymi yo suluvmi? Ko‘zlari qorami yo zig‘ir guldaymi?* (TA, 411)), paxtaday oppoqqina ayol (*Bir ko‘kko‘z o‘rinbosari bor. Paxtaday oppoqqina ayol* (TA, 611)).

Yana bir o‘rinda muallif Oymomo tilidan *Oy-da menday tug‘madi, olam-da taqdirimday zim-ziyo* (OYO, 143), deb yozish orqali oyni Oymomoga o‘xshatadi. Adibning asar qahramoniga Oymomo deb nom berishiga ham oy etaloni sabab bo‘lgan. Bu jumlada yozuvchi farzandsiz o‘tayotgan qahramoni taqdirini qora rang tasviri mubolag‘asi – zim-ziyo ko‘rinishida ifodalaydi. Mazkur ifodada yozuvchining o‘ziga xos mahorati aks etgan. Oy qop-qorong‘u osmondagi bir oydinlikdir. Oymomo nomi bilan uning zim-ziyo taqdiri bir-biriga zidlanishi va

¹⁴ Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Высш. шк., 1989. – С.156.

¹⁵ Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б.25.

¹⁶ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2002. – Б.130.

¹⁷ <https://ru.wiktionary.org/wiki>

zimdanda bu holat osmondagi oyga qiyoslanishi orqali adib ijodiga xos soʻzga chechanlik, topqirlik namoyon boʻladi.

Tahlil natijalariga koʻra, Togʻay Murod qissalarida zoonim komponentli turgʻun oʻxshatishlarning *ot, it, tozi, qoʻchqor, tulki, baliq* etalonli turlari faol ekanligi aniqlandi.

Togʻay Murod qissalaridagi madaniy kodlar tahlili natijasida inson haqidagi turgʻun va individual oʻxshatishlarni quyidagicha maʼnoviy guruhlariga tasnif qilish mumkin:

1. **Inson aʼzolari bilan bogʻliq boʻlgan oʻxshatishlar:** *zilday ogʻir koʻks, yuzlari kulchaday, koʻzlari zigʻir guliday, qoʻlining joni yoʻqday, sfinksdek bashara, kulcha yuz, qoʻy koʻz, sarv qad, Barchin yuzli, ikki yuzi qip-qizil anorday.*

2. **Inson tashqi koʻrinishi bilan bogʻliq boʻlgan oʻxshatishlar:** *suv bilan yutguday qizlar, paxtaday oppoqqina ayol, yelkasiga uy tiksa boʻladigan, polvonqomat ayol.*

3. **Inson jismoniy xususiyati bilan bogʻliq boʻlgan oʻxshatishlar:** *zarang tayoqday baquvvat, qoʻchqorday oʻgʻil.*

4. **Inson xarakteri bilan bogʻliq boʻlgan oʻxshatishlar:** *otday asov polvonlar, misoli ogʻir tosh polvonlar, oʻzi minayotgan mashinaga oʻxshaydigan farzandlar, ignaday narsani togʻday qilmoq, yulduzday qaynona.*

5. **Inson holati bilan bogʻliq boʻlgan oʻxshatishlar:** *yarasiga tigʻ tekkan bemorday seskanmoq, otday boʻlib yurmoq, chumchuqdayin tizilib oʻtirmoq, yogʻday yoqmoq, emchakdoshi urushdan qaytmagan boʻzbola misol mungʻayib qolmoq, parday yengil boʻlmoq, osmondan tushganday boʻlmoq, otday oʻynoqlab kelmoq, yarasiga tigʻ tegmish bemor misol qaltirab ketmoq, qurbaqa oʻligini ushlaganday boʻlmoq.*

6. **Inson xatti-harakati bilan bogʻliq boʻlgan oʻxshatishlar:** *nopok erkakni tappiday yerga yopmoq, toziday chopmoq, itga oʻxshab oʻzi ketib, oʻzi kelmoq, itday tentirab kelmoq, baliqdayin suzmoq.*

Togʻay Murod qissalaridagi inson bilan bogʻliq oʻxshatishlar tahlilidan maʼlum boʻladiki, yozuvchi asarlarida oʻzbek tilida boʻlganidek, inson holati bilan bogʻliq oʻxshatishlar yetakchi, undan keyingi oʻrinlarni esa inson xarakteri va xatti-harakati bilan bogʻliq oʻxshatishlar, inson aʼzolari hamda tashqi koʻrinishi bilan bogʻliq oʻxshatishlar egallaydi. Bu oʻzbek tilida soʻzlashuvchi til egalari koʻproq insonning holatini obrazli tarzda ifodalashini bildiradi.

Bizningcha, Togʻay Murod qissalaridagi oʻxshatish etalonlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

1. Inson va uning aʼzolari nomining etalon vazifasini bajarishi:

a) inson: *bemor, boʻzbola, ayol;*

b) inson aʼzosi: *bel, koʻngil.*

2. Tabiat tematik guruhiga oid soʻzlarning etalon vazifasini bajarishi:

a) tabiat hodisalari: *qora kun, quyun, yel, soya;*

b) tabiat unsurlari: *par, buloq, suv;*

d) samoviy unsurlar: *yulduz, osmon;*

e) flora: *zarang tayoq, gilos, zigʻir guli, olma, qayragʻoch, gul, paxta;*

f) fauna:

- hayvonlar: *ot, ilon, tozi, tulki, qo'chqor, it, bo'taloq, baliq, buzoq, qurbaqa*;
- qushlar: *chumchuq*;
- parrandalar: *xo'roz*.

3. Maishiy turmush realiyalarining etalon vazifasini bajarishi: *samovar, soyabon, kulcha, non, yog, o'q, tappi, moyak, surp, mashina*.

4. Diniy-mifologik va folklor personajlarining etalon vazifasini bajarishi:

a) diniy obrazlar: *behisht*;

b) mifologik va folklor personajlar: *sfiks*.

Yuqoridagi o'xshatishlar lingvomadaniy tahlil qilinganda xalq mentalitetining nozik qirralari ayon bo'ladi. Masalan, buni *Farzandlar o'zi minayotgan mashinaga o'xshaydi* gapi tahlilida ko'rish mumkin. Bu misol N.Qobilovning tadqiqotida ham lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan. Ammo misollar mavzuiy guruhlariga birlashtirilmagan. Unga ko'ra, farzand va mashina qiyoslangan ushbu parchada tezkorlik, shiddatkorlik asos qilib olingan. Mashinaning tezligi zamonaviy dunyodagi o'zgarishlar bilan qiyoslangan holatda berilgan ekani aytiladi¹⁸. Bizningcha, bu o'rinda kontekstga e'tibor berish lozim. Muallif tomonidan avlodlar almashayotgani sayin yurak yo'qolib borayotgani, farzandlarning hayotga beparvo qarashi, musibat va xursandchilikning farqiga bormasligi, shu jihati bilan ular o'zi minayotgan mashinaga o'xshashi, ya'ni his-tuyg'udan bebahra ekani yotiriladi. Agar zamon shu zaylda ketaversa, millat o'zligini boy berishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Yana bir o'rinda yozuvchi ot va mashinani bir-biriga zidlaganda ham mashina ot kabi egasini his qila olmasligini, chunki uning joni yo'qligini yozadi. Demak, hissiyotdan mahrum, milliy an'ana va urf-odatlariga eskilik sarqiti deya qarovchi avlod joni yo'q bir parcha temir kabidir.

O'xshatish uchun etalon sifatida tanlangan so'zlar o'zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko'rsatuvchi til birliklari hisoblanadi. Ko'rinadiki, Tog'ay Murod qissalarida maishiy turmush realiyalarini ifodalovchi so'zlar, tabiat unsurlari hisoblanmish flora, faunaga oid otlar o'xshatish etalonlari sifatida boshqa guruhlariga nisbatan faol qo'llanadi.

Bobning "*Qissalardagi metaforalarning lingvomadaniy jihatlari*" deb nomlangan ikkinchi bo'limida milliy tafakkur mahsuli bo'lgan metaforalar Tog'ay Murod qissalaridagi namunalar asosida lingvomadaniy tahlil qilindi.

Metaforalarning mazmun jihati, shuningdek, ularga birlashtirilgan madaniy konnotatsiyalar kognitiv bilishning manbasiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham obrazli-motivlashgan so'zlar, ya'ni metaforalar madaniy belgilarning ko'rsatkichi hisoblanadi.

Hayvon va parrandalarga sig'inish elementlari o'zbek madaniyati tarixida ham mavjud bo'lgan. Hayvonlarni totemlashtirish davridan qolgan mifologik qarashlar natijasida insonlarga hayvonlar nomining ism qilib berilishi hodisasi bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Tog'ay Murod qahramonlari orasida ham *Qoplonbek, Bo'ri* ismli shaxslar uchrashi fikrimizni isbotlaydi. Bunday nomlarda irreal o'xshashlik vositasida orzu-niyat ham metaforik mazmunni ifodalashga xizmat qiladi: 1. "Bo'ri

¹⁸ Қобилов Н. Тоғай Мурод қиссаларининг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс. - Самарқанд, 2021. – Б.90.

(o‘z.) – qadimiy odatga ko‘ra sog‘ bo‘lsin, mahkam bo‘lsin deb bo‘rining jag‘idan (terisidan) o‘tkazib olingan bola yoki tish bilan tug‘ilgan farzand. Shakllari: Bo‘rijon, Bo‘riboy, Bo‘ribek, Bo‘ritoy, Bo‘riqul”¹⁹. 2. “Qoplon (o‘z.) – qoplondek dovyurak, jasur bo‘lib o‘ssin yoki asad(iyul) oyida tug‘ilgan bola”²⁰.

Kishilarga nisbatan ularning sifatlarini baholash uchun ham hayvon nomlari etnik dunyoqarash bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Tahlillardan ayon bo‘ldiki, bunda *chayon, it, sher, shimpanze, chittak, ilon, ohu, poda, qo‘y, ajdarho* kabi hayvonlarga xos xususiyatlar insonga ko‘chiriladi.

Qissalardagi metaforalar faqat so‘zdan iborat bo‘lmay, ya‘ni tarkibidagi jummalarda o‘xshatish qurilmasi mavjud bo‘lgan, metaforalar bilan birgalikda matn makrotuzilmasidan o‘xshatish munosabati anglashiluvchi matnlar ko‘rinishida ham uchraydi: *asablar – dushman, raqib; tajriba– g‘olib; gap – jonli mavjudot, odam; tabassum – raqqos; quyosh, qish, omad, sunbula, mezon, kun – odam.*

Ushbu metaforik hodisalar matn referentlariga jonli holat baxsh etib, tasviriylikning yuzaga kelishini ta‘minlagan.

Metaforaning yana bir turida personifikatsiya hodisasining aksini ko‘rish mumkin. Bunda odamlar *bodom, olov, mag‘zava, somon, po‘stak, osh, qo‘g‘irchoq, yulduz, cho‘lpon, oy, oftob, qosh-qoboq, shar, to‘nka, soya, buyum, olatayoq, til* kabilarga o‘xshatiladi. Jonlining jonsizga o‘xshatilishi hodisasida mualliflik o‘xshatishlarini ham uchratamiz. Masalan, odamning mag‘zavaga (- *Shu Boboqul bilan Mamat polvon juda lanj ekan, nima dedingiz, Bo‘ri polvon? – E, siz so‘ramang, men aytmayin! – dedi Bo‘ri polvon. Mag‘zava, lanj ham gapmi, mag‘zava!* (TA, 352)), po‘stakka (...*Oydinkim, po‘stakni qayoqqa otib yuborsa, yerga, albatta, teskarisi bilan borib tushadi. Karimni ham qayoqqa otib yuborsa, yerga teskarisi - ko‘kraklari bilan borib tushadi. El Karimni po‘stak deyishining boisi ana shunda* (TA, 355)), olatayoqqa (*Tanqidchi – olatayoq. Melisalar qo‘lidagi olatayoq* (TA, 630)) o‘xshatilgani fikrimizni dalillaydi.

Qissalarda o‘zbek mentalitetiga xos predmetlararo o‘xshatishlar (*yurak cho‘g‘donga, ko‘ngil suv, idish, o‘lja, non, makonga, qosh-u ko‘z kishanga, iymon yonuvchi narsaga, dunyo imoratga, ko‘pkari xastalikka, tuxum beshikka* o‘xshatilgan) ham uchraydi. Bu yerda ham ijodkor uslubiga xos original o‘xshatishlar yaratilgan bo‘lib, masalan, ko‘ngilni adabiyotimiz tarixida ishq mayi bilan to‘ldiriladigan idishga, ma‘shuq tomonidan ovlanadigan ovga, his-tuyg‘ular makoniga o‘xshatish an‘anasi mavjud. Ammo unga nisbatan Tog‘ay Murodga qadar hali hech kim *tomchilaydi, ushoq bo‘lib ketadi* kabi fe‘llarni ishlatib, zimdan uni suv (*Ko‘nglim tomchilashini qo‘ymaydi, men – kulishimni* (TA, 407)) va nonga (*Ko‘nglim tub-tubida nimadir ... nimadir bir nima mayda-mayda ushoq bo‘lib bo‘lib ketdi* (TA, 471)) o‘xshatgan emas.

Kuzatishlar natijasida ko‘rinadiki, Tog‘ay Murod tomonidan yaratilgan qissalarda qo‘llangan metaforalar yozuvchining individual nutqiy uslubiga xos jihatlarni ko‘rsatish bilan birga o‘zbek millatiga mansub til egalarining badiiy tafakkuri, til birliklariga bo‘lgan munosabatini ham namoyon etadi.

¹⁹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. - Тошкент: ЎЗМЭ, 2016. – Б.608.

²⁰ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. - Тошкент: ЎЗМЭ, 2016. – Б.545.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Tog‘ay Murod qissalarida qo‘llangan barqaror birikmalarning milliy-madaniy semantikasi**” deb nomlanadi.

Uchinchi bobning “*Tog‘ay Murod qissalarida qo‘llangan iboralarning lingvomadaniy xususiyatlari*” deb nomlangan birinchi bo‘limida frazeologizmlarning o‘rganilish tarixi, lingvomadaniy birlik sifatidagi ahamiyati yoritilgan va Tog‘ay Murod qissalaridagi namunalar asosida tahlil qilingan.

Qissalarda somatik so‘zlar ishtirok etgan kishi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladigan iboralar bor: *Otamiz ko‘z ilmayajak kechalar bo‘ldi. Onamiz kiprik qoqmayajak kechalar bo‘ldi* (OYO, 174) jumlasida *kiprik qoqmaslik* – uxlamaslik yoki beparvo holatda o‘tirmoq, e‘tibor bermaslik ma’nosida, *Beshik tebratsam, yangam qobog‘i ochiladi, keyin meni urishmaydi* (OYO, 11) misolida *qobog‘i ochilmoq* – xafalik, arazni tark etmoq, ko‘ngli xushnud bo‘lmoq ma’nosida qo‘llangan.

Kattalar og‘zi qulog‘iga yetdi (TA, 357) gapida *og‘zi qulog‘iga yetmoq* somatik frazeologizmi kishining xursandligi, shodligi ma’no semasiga ega. U o‘zbek tilida *boshi osmonga yetdi, do‘ppisini osmonga otdi* iboralari bilan sinonimik holatda qo‘llanadi.

Obbo-o, rais do‘ppi olib kel desa, boshni olib keladiganlardan ekan-da (TA, 417) misolidagi *do‘ppini ol desa, boshni olmoq* iborasida o‘zbek milliyliigi ramzi bo‘lgan do‘ppi atributi qo‘llangan. Bu ibora ba’zi o‘rinlarda *sallani ol desa, kallani olmoq* shaklida ham uchraydi. Salla dindor qatlamga xoslik ma’no semasiga egaligiga ko‘ra ushbu so‘z keyinchalik o‘z o‘rnini milliy libos bo‘lmish do‘ppi so‘ziga bo‘shatib berayotganini ko‘rish mumkin.

Unda, o‘sha iflosning kavushini to‘g‘rilab qo‘yamiz, - dedi (TA, 664) misolida ibora tarkibida milliy kiyimlarimizdan biri *kovush* tilga olinadi.

Bo‘ri polvon rais bilan osh-qatiq bo‘lmadi (TA, 356) misolida *osh-qatiq bo‘lmaslik* iborasi vositasida o‘zbek milliy taomi osh va sutdan tayyorlanuvchi qatiq so‘zlari orqali oshna bo‘lolmaslik semasi yuzaga chiqadi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidagi *Diyonatli zamonlarda manavi Bo‘riqul bilan Nasimga o‘xshagan ikki bo‘zbola tuz-namak bo‘lib, to‘n yopishib oshna bo‘libdi* (TA, 347) jumlasida qo‘llangan *tuz-namak bo‘lmoq* ham osh-qatiq bo‘lmoq frazemasining shevaga xos shakli hisoblanadi. Mazkur gapda o‘zbek milliy libosi – to‘n realiyasini ham uchratish mumkin.

Og‘zingga tolqon solganday miq etmay yurasan! Ayt-da, o‘zi nima gap? (TA, 476) misolidagi *og‘ziga tolqon solmoq* iborasida qo‘llangan tolqon so‘zi ham taom nomini anglatadi. Yo‘qchilik davrida eng totli taom bo‘lgan tolqon non urvog‘iga yong‘oq, danak kabi mahsulotlarning ezib qo‘shilishi natijasida tayyorlangan milliy taom sanalgan. Tolqon og‘izda bo‘lganda gapirish ilojsiz bo‘lgan. Shu sabab ushbu taom nomi qo‘llangan mazkur iborada gapirmaslik, jim turish holati yuzaga chiqqan.

“Ot kishnagan oqshom” qissasida quyidagi jumla bir xatboshida beriladi: *Ko‘nglim hadiksiradi. Tomog‘imdan tuz o‘tmadi. Tarlondan ko‘z uzmadim* (TA, 450). Uch ibora bir vaziyat (Ziyodulla chavandozning Tarlonidan xavotiri)ni tasvirlashga xizmat qilgan. Tomog‘idan tuz o‘tmaslik iborasida o‘zbek taomlarining tarkibiy qismi *tuz* so‘zi sinekdoxa asosida ovqat mazmuniga ishora qilib, kishining ishtahasi bo‘g‘ilib qolgan, chuqur iztirobga tushgan holatini ifodalaydi. *Tarltonni*

tuzim ko‘r qiladi (TA, 471) jumlasida ham shu mazmun ifodalangan. Bu o‘rinda qilingan xizmatdan norozilik ma‘nosi mavjud.

